

**BOSH MIYA GLIOBLASTOMALARINI ANIQLASHDA
MRT NING AHAMIYATI**

Abrayqulov I.R¹, Eshmuradov E.A².



¹Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Annotasiya: Glioblastoma hozirgi kunda markaziy nerv sistemasining eng keng tarqalgan glial astrotsit hujayralaridan o'sadigan havfli o'sma kasalliklaridan hisoblanadi. Barcha glial o'smalarning yarimini va bosh miya birlamchi o'smalarining uchrashi bo'yicha 16-20% ni tashkil qiladi. Har 100000 bemordan 3-4 ta holatda uchraydi. O'sma asosan 40-60 yoshdagi bemorlarda ko'proq uchraydi, lekin bolalarda ham aniqlanadi. Kasallikni kechishi esa ko'pincha ijobiy emas, sababi neyronlardan farqli ravishda astrosit hujayralari tez o'sish xususiyatiga ega va o'sma bilan zararlangandan keyin o'rtacha umr ko'rish 15-17 oyni tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: MRT, MSKT, bosh, o'sma, kontrast, rak,

Usullar: tadqiqotda bemorlarga gistologik xulosalarda glioma yuqori havflilik darajasi tashxisi qo'yilgan har ikki jinsdagi 40-70 yoshdagi 16 ta bemor 2021-yil dekabr oyidan 2022-yil dekabr oyigacha Surxandaryo viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi nurli diagnostika bo'limidagi MRT philips 1.5T apparatida tekshiruvlardan o'tgan hulosalari jamlangan. Gistalogik va MRT tahlillari o'rtasida taqqoslash amalga oshirildi.

Natijalar: Jami tekshirilgan bemorlarning MRT hulosalarida rejimlar bo'yicha nisbat quyidagicha edi. O'smaning solid komponenti T1 tasvirda 14 ta bemorda oq moda chegarasida komponent gipo-izointensiv signal, markaziy qismi geterogen signal (nekroz va o'smaning ichki qonashi) 2 tasida izointensiv signal, T1+C (magnilek) 15 ta bemorda nekroz atrofini o'ragan uzluksiz halqasimon tipdagi kontrast yig'ilishi, GE/SWI rejimida bemorlarda o'smaning ichki komponentida noto'liq noregulyar past intensivlikdagi signallar (qonash hisobiga), DWI rejimida bemorlarda diffuziya cheklanishi markaziy qisimda yuqori signal, MR-spektroskopiyada xolin-oshgan, laktat-oshgan, lipidlar-oshgan, NAA-pasaygan, mio inozitol-pasaygan, T2 tasvirda bemorlarda giperintensiv signal, FLAIR da bemorlarda giperintensiv signal va T2 hamda Flair rejimida perifokal shish zonasi aniqlandi.





Xulosa: Barcha glial o'smalar 91% holatlarda MRT T1 tasvirda gipointensiv, T2 tasvirda giperintensiv va 100% holatda FLAIR rejimida giperintensiv signal beradi. O'smaning T1+contrast (magnilek) periferik kontrast yutishi, markazida nekroz zonasi, qonash belgilari va kuchli ifodalangan periferik shish zonasi gliomaning havflilik IV-darajasi ekanligidan darak beradi. Glioma havfli darajasini MRT da aniqlash va gistalogik tahlillar orasidagi bog'liklik 95% ni tashkil etadi. MRT glial o'smalarni hamda, ularning yuqori havflilik darajasini aniqlashda yetakchi va istiqbolli usul hisoblanadi. MRT nafaqat glial o'smalarni aniqlash balki, ularni boshqa intrakranial o'smalar: metastazlar, anaplastik astrositoma, oligodendroglioma, bosh miya absesslari, toksoplozmoz va markaziy nerv sistemasi limfomalaridan farqlashga yordam beradi.